

---

## SAYYOR QABULDA MUROJAATCHIGA NOGIRONLIK ARAVACHASI TOPSHIRILDI

Oltiariq tumani hokimi Sh.Turdaliyevning navbatdagi sayyor qabuli tumandagi 2-son kasb-hunar maktabida bo'lib o'tdi.



Unda tuman hokimi o'rribosarlari, tashkilotlar rahbarlari, Xalq qabulxonasi vakillari ishtirok etdilar.

Qabul davomida 20 nafardan ortiq fuqaroning turli masalalarga doir murojaatlari tinglandi va ularning barchasi tegishli tartibda ro'yxatga olindi.

Aksariyat murojaatlarga huquqiy tushuncha va maslahat berilgan bo'lsa, muddat talab etiladigan murojaatlar ijro uchun mutasaddilarga biriktirildi.



Xususan, uy-joy hamda bolalar nafaqasini olish masalasi bilan kelgan bir guruh fuqarolarga huquqiy tushuncha berildi.

Sayyor qabulda Qiziltepa MFY Guliston ko'chasi 10-uyda yashovchi 70 yoshli Shohriniso aya Qazaqovaning farzandi onasi uchun nogironlik aravachasi so'rab murojaat qildi. Murojaat shu yerda ijobiy hal etilib, nogironlik aravachasi topshirildi.

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-05 18:20:00